

MIGRANTLAR HUQUQLARI HIMOYASINING RESPUBLIKA VA XALQARO DARAJADAGI AHAMIYATI

Ummatova Iqboloy

Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti 2-kurs
talabasi e-mail: iqboloyummatova27gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqola doirasida muallif tashqi migratsiya va uning mamlakatdagi holati, migrantlar huquqlarini himoya qiluvchi mahalliy va xalqaro tashkilotlar hamda normativ-huquqiy hujjatlar ahamiyatini yoritib bergan. Shuningdek, migratsiya borasidagi statistika tahlil qilingan va mazkur sohadagi yutuq va kamchiliklar haqida to'xtalib o'tilgan. Maqolada migratsiya tushunchasining nazariy jihati ham atroflicha yoritilgan.

Kalit so'zlar: migratsiya, migrant, xalqaro tashkilot, konvensiya, strategiya, protokol.

ЗНАЧЕНИЕ ЗАЩИТЫ ПРАВ МИГРАНТОВ НА РЕСПУБЛИКАНСКОМ И МЕЖДУНАРОДНОМ УРОВНЯХ

Аннотация: В рамках данной статьи автор осветил важность внешней миграции и ее положения в стране, местных и международных организаций, защищающих права мигрантов, а также нормативно-правовых актов. Также была проанализирована статистика по миграции и отмечены достижения и недостатки в данной сфере. В статье также подробно рассматривается теоретический аспект концепции миграции.

Ключевые слова: миграция, мигрант, международная организация, конвенция, стратегия, протокол.

THE IMPORTANCE OF MIGRANT RIGHTS PROTECTION AT THE REPUBLICAN AND INTERNATIONAL LEVEL

Annotation: Within the framework of this article, the author highlighted the importance of external migration and its status, local and international organizations protecting migrant rights and regulatory legal acts. Also, statistics on migration have been analyzed and talk about achievements and shortcomings in this area. The article also covers the theoretical aspect of the concept of migration in detail.

Keywords: migration, migrant, International Organization, Convention, strategy, protocol.

Uzoq yillik tarixdan ma'lumki insonlar turli sabablarga ko'ra yashash joylarini o'zgartirishadi ya'ni bir joydan ikkinchi joyga ko'chishadi. Tarixda bunga ob-havo sharoitining yomonlashuvi, oziq-ovqatning kamayishi hamda turli tabiiy ofatlar kabi holatlar asosiy sabablardan hisoblangan. Bugungi globallashuv va texnika asri deya nomlanayotgan asrimizda insonlar yaxshi o'qish sharoitini izlab, urush holatlari

kuzatilayotgan joylardan qochib, eng asosiysi esa ish qidirib yo'lga chiqmoqda. Bilamizki mamlakatimizdan ham ko'plab insonlar ishlash maqsadida chet mamlakatlarga ketishadi.

So'nggi yillarda nafaqat O'zbekistonda balki dunyo bo'ylab mehnat migrantlarining soni oshib borayotgani hech kimga sir emas. Shu sababli yaqin 10 yil ichida yurtimizda migratsiya huquqiga e'tibor juda ham kuchaytirildi.

Migratsiya lotincha so'zdan olingan bo'lib „migratio“— ko'chaman, joyimni o'zgartiraman degan ma'nolarni anglatadi. Shu o'rinda migrant tushunchasiga ham ta'rif berib o'tishimiz maqsadga muvofiq. Migrant – migratsiya jarayonlarida bevosita ishtirok etuvchi shaxs bo'lib, har bir migrant o'zining ketgan hududi uchun ko'chib ketuvchi va kelgan hududi uchun ko'chib keluvchi shaxs hisoblanadi.⁸ Migrantlar huquqlarini himoya qilish uchun chora tadbirlar bugungi kunda ham faol davom etmoqda.

Aholi migratsiyasi sabablari o'rganuvchilar tomonidan turlicha izohlanadi. Hozirgi kunga qadar aholi migratsiyasi mahalliy tadqiqotchilar tomonidan ham o'rganilgan bo'lib V.A.Ibrohimov tomonidan o'tkazilgan tahliliy natijalarga ko'ra mahalliy nashrlarga migratsiya tushunchasiga 36 xil yondashuv mavjud.⁹ Aholi migratsiyasi jarayonlari, sabablarini turli xil soha vakillari o'rgangan bo'lib, G.Ionsev ham mahalliy va xorijiy manbalarni tahlil qilgan holda migratsiyani nazariy jihatdan talqin qilishning yaxlit tasnifini yaratgan.

Unga ko'ra migratsiya jarayonlari tahliliga nazariy 17 xil yondashuv aniqlangan bo'lib, asosiylari, siyosiy, iqtisodiy, sof migratsion, demografik, tarixiy yondashuvlardir.¹⁰ Bu fikrlar migratsiya tushunchasini to'liq qamrab ololmaydi. Chunki migratsiya tushunchasi juda keng tushuncha bo'lib har bir tadqiqotchi, olim o'z sohasidan kelib chiqib migratsiya nazariyasini yoritadi.

Migratsiyaning asosiy sabablari sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

- Ishsizlik yoki yanada yaxshiroq ish topish maqsadi
- Ta'lim ya'ni o'qish uchun
- Urush holatlari
- Tabiiy ofat
- Yashash sharoitining yomonlashuvi, oziq-ovqat va suv tanqisligi

Shu kabi holatlar migratsiyaning asosiy sabablaridan hisoblanadi. Mamlakatimizdan ko'pchilik insonlar ishlash uchun chet davatga ketayotgani hech birimizga sir emas. Konstitutsiyamizning 23-moddasida O'zbekiston Respublikasi o'z hududida ham, uning tashqarisida ham o'z fuqarolarini himoya qilish va ularga homiylik ko'rsatishni kafolatlaydi¹¹ deb belgilab qo'yilgan.

Mamlakatimiz fuqarolari huquq va erkinliklari respublikamiz hududida ham tashqarisida ham himoya ostidadir. Chet eldagi O'zbekiston Respublikasi fuqarolari O'zbekiston Respublikasining xorijdagi vakolatxonalarini va huquqni muhofaza qiluvchi organlarga o'z huquqlarini himoya qilish uchun murojaat qilishlari mumkin. Mehnat migrantlari huquqlarini himoya qiluvchi asosiy davlat organlaridan biri sifatida Tashqi

⁸ <https://demografiya.uz/wiki/migrant-2/>

⁹ Ибрахимов В.А Международная миграция населения: теория и история изучения. -Ташкент. 2013.-69 б

¹⁰ Игорьян Д.И Теория и практика исследования миграция населения. -М, Наука, 2011. -181 б

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. "O'zbekiston" Toshkent-2023

mehnat migratsiyasi agentligini keltirishimiz mumkin. Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi respublika milliy manfaatlarini inobatga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga solish va ularni xorijda uyushgan holda ishga joylashtirish sohasida xalqaro huquq normalari va qoidalariga asoslangan faoliyatni amalga oshiradi.

Quyidagilar Agentlikning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini uyushgan holda tanlash, tayyorlash, moslashtirish tadbirlarini o'tkazish va xorijda ishga joylashtirish jarayonlarini samarali boshqarish va nazorat qilish orqali ularga xorijda mehnat faoliyati bilan shug'ullanishga doir huquqlarini amalga oshirishda ko'maklashish;

- tashqi mehnat migratsiyasini kompleks tahlil qilish, shu asosda normativ-huquqiy bazani takomillashtirishga doir takliflar ishlab chiqish, mehnat migratsiyasidan qaytgan fuqarolarni ishga joylashtirishda ko'maklashish;

- mehnat migratsiyasi sohasida xalqaro hamkorlik loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini xorijda ishga joylashtirish va ularning mehnat huquqlarini ta'minlash jarayonlarini tartibga solish masalalari bo'yicha xorijiy davlatlarning vakolatli organlari bilan hamkorlik qilish va boshqalar.

O'zbekistondan ketgan migrantlar uchun beshta asosiy mamlakat Rossiya Federatsiyasi (1,1 million), keyingi o'rinlarda Qozog'iston (296 ming), Ukraina (223 ming), Turkmaniston (67 ming) va Amerika Qo'shma Shtatlari (63 ming) bo'ldi (BMT DESA, 2021). Biroq 2022-yilda O'zbekiston fuqarolari quyidagi asosiy mamlakatlarga doimiy yashash uchun ko'chib o'tgan:

Qozog'iston (79,5 foiz), undan so'ng Rossiya Federatsiyasi (16,4 foiz), Markaziy Osiyo davlatlaridan tashqari boshqa yo'nalishlar (2,7 foiz), Qirg'iziston (0,7 foiz), Tojikiston (0,5 foiz) va Turkmaniston (0,3 foiz)ni tashkil etdi (O'zStat, 2023). Aytish joizki, migratsiya masalalari o'z ichiga faol, o'rta yosh va yosh aholini qamrab oladi.

O'zStat ma'lumotlariga muvofiq, 2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, mamlakat aholisining umumiy soni 36 million kishini, migrantlar soni esa 2,3 million nafarni tashkil etib, ulardan 1,1 million nafari erkaklar va 1,2 million nafari ayollardir.

Aholimiz migratsiya borasida eng ko'p Rossiya davlatini tanlayotganini statistika ham tasdiqlamoqda. Yildan yilga Rossiyada ishlayotgan O'zbekistonlik mehnat migrantlari soni ortib bormoqda.

Achinarlisi esa ko'pchilik noqonuniy yo'l bilan Rossiyaga ishlash uchun bormoqda va turli muammolarga duch kelmoqda. Bu kabi holatlarning oldini olish va chet elga turli maqsadlarga ko'ra ketgan fuqarolarimiz huquqlarini himoya qilish borasida chora tadbirlar amalga oshirilmoqda hamda bu borada normativ huquqiy hujjatlar ham qabul qilinmoqda.

Rossiyadagi O'zbekistonlik mehnat migrantlari huquqini himoya qilish uchun O'zbekiston Respublikasi hukumati bilan Rossiya Federatsiyasi hukumati o'rtasida tuzilgan O'zbekiston Respublikasining Rossiya Federatsiyasidagi mehnatkash-migrantlari fuqarolarining va Rossiya Federatsiyasining O'zbekiston Respublikasidagi mehnatkash-migrantlari fuqarolarining mehnat faoliyati va huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi bitim

(15.07.2009) muhim hisoblanadi. Ushbu bitim 3-moddasida mehnatkash migrant tushunchasiga ta'rif berilgan.

Unga ko'ra: "Mehnatkash migrant" — bir Tomon davlatining fuqarosi bo'lgan, 18 yoshga yetgan, boshqa Tomon davlati hududida yashayotgan va qonunga asosan o'sha erda haq to'lanadigan mehnat faoliyati bilan shug'ullanayotgan shaxsdir.

Ushbu Bitim O'zbekiston Respublikasi fuqarolari hisoblangan va Rossiya Federatsiyasi fuqarolari hisoblangan mehnatkash-migrantlarining mehnat faoliyati va huquqlarini himoya qilish masalalarini tartibga soladi. O'zbekiston Respublikasida migratsiya va migrantlar to'g'risida aniq qonun mavjud bo'lmasada Xalqaro hujjatlar, mustaqillik davridan boshlab yuzdan ziyod normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo'lib, 90 dan ortiq qonun osti hujjatlar- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, shuningdek idoraviy qarorlar va buyruqlar bilan tartibga solib kelinmoqda.

Shunga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-noyabrdagi „O'zbekiston Respublikasi hududida xorijiy davlatlarning malakali mutaxassislari tomonidan mehnat faoliyatini amalga oshirishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risidagi" PQ 4008-son Qarori, 2019-yil 20-avgustdagi PF-5785-son „Xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va ularning oila a'zolarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish choralari to'g'risida" Prezident farmoni, 2020-yil 15-sentabrdagi „Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4829-son qarori qabul qilingan bo'lib, mazkur hujjatlar asosan tashqi mehnat migratsiyasi sohasidagi vakolatli organlar faoliyatini takomillashtirish, xorijda ishlamoqchi bo'lgan shaxslarni talab yuqori bo'lgan kasblarga o'qitish, fuqarolarning chet elda bo'lish davrida huquqlarini himoya qilishni nazarda tutadi.

Shuningdek "O'zbekiston – 2030" strategiyasining 95-maqsadi aynan xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasini ta'minlash hamda samarali migratsiya siyosatini yuritishga bag'ishlangan.

Bu kelgusi olti yilda ham xorijda murakkab hayotiy vaziyatga tushib qolgan vatandoshlarni moddiy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularga axborot jihatidan va huquqiy yordam ko'rsatish asosiy maqsadlardan bo'lishini anglatadi.

Yuqorida sanalgan huquqiy-hujjatlarning barchasida turli maqsad va sabablarga ko'ra chet davlat ketgan fuqarolarimizning huquq va erkinliklari belgilangan.

Mamlakatimiz fuqarolari davlat hududida ham uning tashqarisida ham davlat himoyasi ostidadir. Yaqin yillar ichida dunyoning eng nufuzli universitetlariga grand asosida qabul qilinib o'qish uchun chet davlatga ketayotgan yoshlarimizning ko'payotgani quvonarli albatta.

Ammo bu mehnat migrantlariga taqqoslaganda juda kamchilikni tashkil etadi. Tan olishimiz kerakki yurtimizdan chet davlatga ketayotgan fuqarolarimizning asosiy qismi ishlash maqsadida chegaralarimizni tark etmoqda.

Ular qiladigan ish ham asosan „qora mehnat". Yurtimizdan chet davlatga ketayotgan (asosan Rossiyaga) mehnat migrantlarining asosiy qismini yoshlar tashkil etayotgani ham masalaning dolzarbligidan dalolat beradi.

Mehnat migratsiyasining foydali tmonlari ham mavjud.

Masalan, migrantlar tufayli turli xalqlar o'rtasida axborot va g'oya, madaniy qadriyat va ilmiy-innovatsion ayirboshlash ta'minlanadi. Mehnat migratsiyasi farovonlikka, iqtisodiyot o'sishiga olib keladi. migrant kelib chiqqan mamlakatda kambag'allik qisqarishiga yordam beradi.

Xalqaro huquqda migrantlar huquqini himoya qiluvchi bir qancha hujjatlar mavjud. 1990 yil 18 dekabr kuni BMTning Barcha mehnatkash-migrantlar va ularning oila a'zolari huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi konvensiyasi qabul qilingan. Ushbu konvensiya Birlashgan Millatlar Tashkilotining mehnat muhojirlari va oilalarini himoya qilishni tartibga soluvchi ko'p tomonlama shartnomasidir (51 davlat ratifikatsiya qilgan). 1990-yil 18-dekabrda imzolangan, 2003-yil mart oyida ratifikatsiya qiluvchi 20 ta davlat chegarasiga erishilgandan so'ng 2003-yil 1-iyulda kuchga kirdi. Konvensiya 2023-yil sentabriga kelib 59 ta davlatda amal qiladi¹².

Ushbu Konvensiyaning 7-moddasida mehnat muhojirlari va ularning oila a'zolarining "jinsi, irqi, rangi, tili, dini yoki e'tiqodi, siyosiy yoki boshqa e'tiqodi, milliy, etnik yoki ijtimoiy kelib chiqishi, millati, yoshi, iqtisodiy mavqei, mulki, mulki, irqi, rangi, e'tiqodi, oilaviy ahvol, tug'ilish yoki boshqa holatdan qat'i nazar" himoya qilinadi deb belgilangan.¹³ Shuningdek, 1951-yildagi Qochqinlar to'g'risidagi konvensiya va uning 1967- yildagi protokoli (Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo 145 va 146 davlat tomonidan ratifikatsiya qilingan). BMTning Qochqinlar to'g'risidagi konvensiyasi va majburiy migratsiya bo'yicha mintaqaviy kelishuvlar xalqaro hamkorlikni o'z hukumatlariga ishona olmaydigan shaxslarga yordam berish, himoya qilish va yechim topish bo'yicha mas'uliyatni taqsimlash usuli sifatida targ'ib qiladi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti xalqaro migratsiya bilan bog'liq yana bir qancha huquqiy hujjatlarga ega;

- Qochoqlar maqomi to'g'risidagi 1967-yildagi Protokol,
- 2000-yildagi odamlar, ayniqsa ayollar va bolalar savdosining oldini olish, bostirish va jazolash to'g'risidagi Protokol
- 2000-yildagi migrantlarning quruqlik, dengiz va havo orqali kontrabandasiga qarshi Protokol.

Ushbu hujjatlar Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) tomonidan qabul qilingan mehnat migrantlarining huquqlariga oid hujjatlar bilan birgalikda xalqaro migratsiya bo'yicha xalqaro normativ-huquqiy bazaning asosini tashkil etadi.

Migrantlar huquqlarini himoya qilish sohasida bir qancha xalqaro tashkilotlar o'z faoliyatini olib boradi. Xalqaro Migratsiya Tashkiloti (XMT) -Birlashgan Millatlar Tashkilotining migratsiya sohasida faoliyat yurituvchi asosiy tashkilotidir. Tashkilot muhojirlar, jumladan, qochqinlar va mehnat muhojirlari uchun tezkor yordam dasturlarini amalga oshiradi.

Tashkilotning shtab-kvartirasi Jenevada joylashgan bo'lib, aloqa idoralari Nyu-York va Addis-Abebeda joylashgan. Global migratsiya ma'lumotlarini tahlil qilish markazi

¹² "13. International Convention on the Protection of the Rights of All Migrant Workers and Members of their Families. New York, 18 December 1990". UN Treaty base. Retrieved 2 August 2021

¹³ Kinnear, Karen L. (2011). Women in Developing Countries: A Reference Handbook. ABC-CLIO. p. 184. ISBN 9781598844252.

(GMDAC) Berlinda joylashgan. O'zbekistonning 2019 yilda tashkilotning to'laqonli a'zosiga aylanishi respublika bilan tashkilot o'rtasidagi hamkorlikni faollashtirishga hissa qo'shdi. Ushbu hamkorlik barqaror ravishda o'sib bormoqda.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, migratsiya hamda migrantlar huquqlarini himoya qilish nafaqat O'zbekiston oldidagi balki xalqaro darajadagi ahamiyatli masaladir.

Mazkur sohani mamlakatimizda tartibga soluvchi qonun qabul qilish lozim. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi tomonidan 2022-yil 22-fevral kuni qabul qilingan "Tashqi mehnat migratsiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini ko'rib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 84-moddasiga va "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonunining 24-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati qaroriga ko'ra rad etilgan edi).

Shuningdek migrantlar huquqlarini himoya qilish mexanizmini yaxshilash zarur.

Bu kabi ishlarning amalga oshirilishi migrantlar va ularning oila a'zolari huquqlarining himoyasi darajasini salmoqli darajada oshiradi.

REFERENCES:

1. <https://demografiya.uz/wiki/migrant-2/>
2. Ибрахимов В.А Международная миграция населения: теория и история изучения. -Ташкент. 2013.-69 б
3. Игорьян Д.И Теория и практика исследования миграция населения. - М, Наука, 2011. -181 б
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi."O'zbekiston" Toshkent-2023
5. International Convention on the Protection of the Rights of All Migrant Workers and Members of their Families. New York, 18 December 1990". UN Treaty base. Retrieved 2 August 2021
6. Kinnear, Karen L. (2011). Women in Developing Countries: A Reference Handbook. ABC-CLIO. p. 184. ISBN 9781598844252.